

## **TOHKENT VILOYATI SHAROITIDA XRIZANTEMA O‘SIMLIGINI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI**

**Oqqo‘ziyev I.O‘., Xoliqov A.N., Turobov F.B.**  
*O‘simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti*

Atrof muhitni ko‘kalamlashtirish, shahar va hiyobonlarni, jamoat tashkilotlarining atrofini yanada chiroyli va odamlar e‘tiborini tortadigan, ularga zavq bag‘ishlaydigan olam bu gullardir. Gullar o‘zining rang barangligi, chiroyliligi bilan insonlarni jalb etib kelgan. Shu bois Surxobdaryo sharoitida xrizantema gullarini yetishtirish usullarini o‘rganish ishlari ilib borilgan. Xrizantemalarning zamonaviy navlari sharq mamlakatlari Xitoy, Yaponiya hamda Amerika va Evropadagi ko‘p yillik selektsiyalar natijasida yaratilgan. Xrizantemalar boshqa turdagi gullar biroz kamaygan paytda - kuz mavsumida gullaydi. Xrizantemalar yuqori dekorativ hossalari, tashish uchun qulayligi, uzilgandan so‘ng ko‘p muddat saqlash mumkinligi va o‘stirish sharoitlariga bo‘lgan talablari unchalik yuqori bo‘lmagani tufayli xrizantemalar O‘zbekistonda keng yetishtirib kelinmoqda. Katta gulli xrizantemalar - ko‘p yillik dekorativ o‘simliklar bo‘lib, boyi 200 sm gacha yetishi mumkin.

Xalq tilida xrizantema deb ataladigan gul bitta gulsavatga yig‘ilgan 1700 dan ortiq gulchalar to‘plamidir. Mayda gulchalar barcha gullar uchun umumiy bo‘lgan bitta katta diskda yig‘ilgan bo‘ladi. Bu gulchalar tashqi tomondan gul atrofi barglari bilan himoyalangan bo‘ladi. Bunday holda uning tashqi ko‘rinishi bitta katta gulga o‘xshab ketadi. Xrizantema navlarini uch guruhga bo‘lishi mumkin: katta gulli xrizantemalar, dekorativ gullar va mayda gulli xrizantemalar.

Xrizantemani ildizidan yoki novdalaridan ko‘paytiriladi. Xrizantemaning ildiz qismi yog‘ochlangan bir yillik ildiz va kuzgi-qishki mavsumda kurtaklardan o‘rib chiqqan yangilanish o‘simtalari hamda keyinroq hosil bo‘lgan o‘simtachalardan iborat. Novda ildiz otganidan so‘ng, uning o‘sishi yuqoridagi kurtaklar hisobiga amalga oshadi. Pastki (*yer ostidagi*) kurtaklar esa keyinchalik (*kuzda*) yerdan bosh ko‘tarib chiqadilar va ularni yangi o‘simlik ko‘chati tariqasida boshqa yerga ko‘chirib o‘tkazish mumkin bo‘ladi. Yangilanish o‘simtalari soni o‘simlikning yer ostidagi kurtaklari soniga va ekilish vaqtiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, 30-martda ekilgan o‘simliklardagi yangilanish o‘simtalari soni 25-iyulda ekilgandagiga nisbatan ancha ko‘p bo‘lishi tajribada kuzatilgan.

Kuzda, sovuq tushishidan avval xrizantemalar qazib olinib, tuprog‘ini tushurib yubormasdan muzlamaydigan xonaga qoyiladi yoki podvalga ko‘miladi. Ularni yashikka yoki tuvakka ekib qoyish ham istisno etilmaydi. Bog‘da qolgan xrizantemalarning ustiga qish mavsumida muzlab qolmasliklari uchun somon yoki barglarni qalin qilib to‘shab qoyish mumkin. Ko‘p suv tushish natijasida tuproq yuvilib, xrizantema ildizlari tashqariga chirib ketmasligi uchun uning ustiga soyabon qilib qoyish ham mumkin.

Xrizantemalarni novdalaridan ko‘paytirish eng samarali usul hisoblanib, bunda xrizantema navining barcha ko‘rsatgichlari va xossalari saqlanib qoladi hamda bu usulda ko‘p miqdordagi ekish materialini olish mumkin bo‘ladi. Novdalar tayyorlash vaqti ona xrizantemalar soniga, o‘stiriladigan joyga va o‘stirish usuliga bog‘liq bo‘ladi. Bog‘ sharoitlarida mart oyi oxirida qishlab chiqqan xrizantemalardan yangi novdalar o‘rib chiqqan boshlaydi. Huddi shu vaqtda bu novdalar qirqib olinib, parniklarda ildiz o‘tirilishi mumkin bo‘ladi. Novdalarni tagiga ozuqali tuproq solingan yiriq qumga ekiladi. Novdalar ustiga yog‘och yoki metall karkas qilinib, u pliyonka yoki qoplar bilan yopib qoyiladi. Polietilen yopinchiqning chekkalaridan havo aylanishi uchun bir nechta teshiklar qilinadi.

### 3-YO'NALISH: DAVOM ETAYOTGAN IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA TABIIY RESURSLARNI SAQLASHGA ERISHISH UCHUN AGROBIOLOGIK XILMA-XILLIKDAN BARQAROR FOYDALANISH

Parnikning ichidan uzunasiga bir yoki ikkita truba o'tkazilib, uning har 50-70 sm ga suv purkagichlar o'rnatiladi. So'ngra bu trubalar rezina shlang yordamida vodoprovodga ulanadi.

Bunday sharoitlarda ildiz ottirilgan xrizantema novdalari erta bahorda yerga o'tkaziladi va parvarish qilinadi. Bunday ko'chatlar eng baland, ko'p shoxli bo'lib, gullari ham nisbatan kattaroq bo'ladi. Agarda qisqa muddatli sovuqlar tushsa, ko'chatlarning usti plyonka, brezent yoki qoplar bilan yopib qoyilishi mumkin. Agar xrizantemalar doimiy ravishda o'stirilsa, parnikka isitish tizimini o'rnatish kerak bo'ladi. Xrizantema novdalarini mayda zarrachali suv chiqaradigan purkagichlar bilan ta'minlangan parniklarda iyul oyigacha ildiz ottirish mumkin. Agarda xrizantema novdalari torf va qora tuproq aralashmasida ildiz ottirilsa, ularni ildiz tizimiga zarar etkazmasdan 5x5x5 sm o'lchamli kubiklar shaklida tuproq bilan birgalikda kesib olib, boshqa joyga ekish mumkin. Bunda ko'chatlar juda yaxshi tutadi va rivojlanadi.

Ona xrizantemalardan ko'proq novdalar tayyorlash uchun yangi shoxlarni pastdan 2-3 ta barg qoldirgan holda kesib olinadi. Bunda barglar qoldirilgan joylardan yangi novdachalar o'sib chiqadi va ular 10-12 sm uzunlikkacha o'sgandan so'ng, ulardan yana 2-3 tadan pastki barglar qoldirilib, yangi novdalar kesib olinadi. Shunday qilib, ushbu usulni qo'llagan holda ko'chatlar tayyorlash uchun juda ko'p miqdordagi novdalar tayyorlash mumkin bo'ladi.

Novdalarni yaxshi ildiz ottirish uchun yirik qum qatlami ostida 2-3 sm torf qatlami bo'lishi tavsiya etiladi. Torfning namlikni yaxshi saqlashi va aeratsiyasi juda yuqori bo'lganligi uchun ko'chatlarning ildizlari baquvvat va rivojlangan bo'ladi. Yaxshi natijalar olish uchun ildiz ottiriladigan novdalarning uchlarini geteroauksin eritmasiga (*7 litr suvga 1 ta tabletka*) botirib olish va pastki kesilgan joyiga yog'och kuli poroshogini sepish tavsiya etiladi. Ekilgan novdalarga bir-ikki marta margantsovkani (*margantsovo kisliy kaliy*) kuchsiz eritmasi sepiladi. Ona xrizantemadan kesib olingan novdalari erta bahorda 2-3 sm oraliqda va qatorlararo 3-5 sm masofada, yozda esa 3-4 sm oraliqda va qatorlararo 5-6 sm masofada ekiladi. Bunda 1 metr kvadrat yer maydonida 300 dan 500 tagacha ko'chat joylashtirish mumkin bo'ladi.

### **Adabiyotlar**

1. R.X.Ayupov. “Lola, Giatsint va Natsiss yetishtirish texnologiyasi” Toshkent, 2011-yil
2. X. Buriyev, L.Abduraxmonov, A. Jononbekova “Gulchilik ” Toshkent — «Mexnat» — 1999
3. X. Yuldashov “Ko‘chatchilik va gulchilik ishlari” Toshkent «Davr nashriyoti» 2013.